

## **SOLIQ HISOBOTLARINING AVTOMATLASHTIRILISHI SOLIQ MA'MURCHILIGIDA SOLIQLARNING YIG'UVCHANLIGINI OSHIRIVCHI ASOSIY OMIL.**

*Muxammadov Nodir Karimovich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish asosida qonunchilikka rioya etish va ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, ko'proq daromadlarni samaraliroq yig'ish, shaffoflik va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash nazarda tutilgan. Bugungi kunda soliq ma'muriyatchiligi doirasida soliqlar tuzilmasini optimallashtirish, ularni undirish, soliq hisobi va hisobotini yuritish mexanizmini takomillashtirish, soliq to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida va to'liq to'lanishi, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligida belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishini nazorat qilish, soliq tushumlarini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, natijalarni yig'ish va tahlil qilish, soliqqa tortish jarayonining barcha ishtirokchilarining soliq munosabatlarini uyg'unlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish nazarda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** byudjet siyosati, elektron hisobvaraqa-fakturalar, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik sub'ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq, interaktiv xizmat, samaradorlik, raqamli platforma, onlayn nazorat-kassa texnikasi, usullar va vositalar, ilg'or axborot kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, veb-xizmatlar, zamonaviy texnikalari.

**Kirish:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev, "moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishga nisbatan e'lon qilingan moratoriyning muddati tugagani, lekin, bu yana eski usulda yoppasiga tekshir-tekshirlarni boshlab yuborish mumkin degani emasligi, 2020 yilning birinchi choragida, ilg'or tajribalar asosida, barcha darajadagi

nazorat qiluvchi idoralarda yangi zamonaviy intizim joriy etilishi shartligini qayd etdilar.<sup>1</sup> Bugungi kunda xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash dunyoning ko'plab mamlakatlarida dolzarb muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida ham xufiyona iqtisodiyotning ko'lami yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, xufiyona iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy ijtimoiy tuzilmalar, jamiyatdagi iqtisodiy mynocabatlapni o'z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, balki, avvalo, jamiyat tomonidan nazorat qilib bo'lmaydigan, mamlakat aholisining bir qismini tashkil qiluvchilarning shaxsiy va guruhviy manfaatlarini qondirish, ya'ni katta miqdorda qo'shimcha daromad (foйда) olishni ko'zlab davlat organlari boshqaruvi va nazoratidan yashirgan holda, davlat va nodavlat mulkidan hamda iqtisodiy boylik, tadbirkorlik qobiliyatidan jinoiy yo'l bilan foydalanishdir.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Soliq to'lovchilarning elektron hujjatlar bilan ishlashi ular tomonidan soliq organlariga tashrif uchun sarflanadigan va va moddiy xarajatlarini tejashga olib keladi. Tizim avtomatlashtirilishi natijasida bir qator ijobiy natijalarga erishilgan. Bunda soliq to'lovchilarning soliq tizimi organlari xodimlari bilan muloqotlarini kaayishiga erishilgan, interaktiv xizmatlardan foydalanish natijasiga murojaatni ijrochiga to'g'ridan-to'g'ri kelib tushishiga erishiladi, soliq ma'murchiligi ishtirokchilarining ish vaqti va mablag'lari tejaldi, yashirin iqtisodiyotni oldini olishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligi ortdi. Soliqqa tortiladigan bazani ko'paytirishda resurs soliqlarini avtomatlashtirish juda katta samara berdi. Birinchi navbatda tovar aylanmasi bir milliardgacha bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari ham 2019 yil 1 yanvardan boshlab mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari deb e'tirof etila boshladi. Keyinchalik korxonalar va tashkilotlarning mol-mulk solig'i hisobotidagi ob'ektlar kadastr tizimidan o'zaro elektron hujjat aylanishg tizimi olish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>(Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis in 2020 25 January)

boshlanishi bilan hisobotlardagi mol-mulk solig'i ob'ektlari soni ortdi. Soliq bazasini yanada ko'paytirish maqsadida keyingi bosqich sifatida mol-mulkning har bir metr/kvadrat uchun minimal qiymatining joriy qilinishi bo'ldi. Bu minimal qiymat kiritilishi bilan byudjet daromadlarining mol-mulkga tegishli qismi sezilarli darajada ko'paydi. Soliq tizimi organlari xodimlarining soliq to'lovchilar bilan rasmiy muloqot qilishlari uchun soliq to'lovchining elektron shaxsiy kabineti joriy qilindi va qonunchilik bilan tartibga solindi. Qonunchilikka muvofiq soliq xizmati organlari soliq to'lovchilar bilan ularning shaxsiy kabineti orqali muloqotlari rasmiy etib belgilandi. Bunda soliq to'lovchilar o'z murojaatlarini ularga berilgan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlab murojaatlarini haqiqiy ekanligini qonuniy mustaqamladilar. Soliq to'lovchilar shaxsiy kabinetlari orqali soliq hisobotlarini yuborishlari mumkin, soliqlarni to'lovini amalga oshirishlari mumkin va shu kabi 40 tadan ortiq interaktiv xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Hisobotlarning avtomatlashtirilishi soliq to'lovchilarning ishchi kuchi va moddiy xarajatlarini tedashi bilan bir qatorda hisobotlarni rasmiylashtirish jarayonlaridagi katta va kichik xatoliklar oldi olindi. Hisobotlarning avtomatlashtirilishi soliq organlarining ularni qabul qilish jarayonidagi ovoragarchiliklarini va inson omilini kamaytirishga xizmat qildi.

### **Xulosa va takliflar.**

Soliq hisobotlarining avtomatlashtirilishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning vaqti va xarajatlari tejaladi soliq xizmati organlari xodimlarining tekshirish jarayonlari soddalashadi. Tadbirkorlarga alohida mobil dasturiy mahsul yaratilib, boshqa davlat organlariga integratsiya qilish orqali ushbu dasturda tashuvchilar o'z faoliyatining qonunchilik talablariga muvofiqligini mustaqil ravishda tekshirish, agregatorlar dasturlarga ulanish, o'zini o'zi band shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazish imkoni berish hamda xizmat ko'rsatish markazlariga onlayn nazorat-kassa texnikalariga xizmat ko'rsatish majburiyatini yuklash orqali tadbirkorliklar uchun qulaylik yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Adabiyotlar/Literatura/Reference:**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Gadoev E.F. va b. Bilvosita soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i. – Toshkent: «NORMA», 2011. – 327 b.;

Qurbanov Z.N. «Soliq hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari». Dis...i.f.d. - Toshkent.: BMA, 2008. 272 b.;